

# **Kanada va Afg'oniston bilan hamkorlik tajribasi**

**2021 28 Iyun**

Joriy yilning iyun oyida “O‘quv-mashg‘ulot markazi” MCHJ “ETC-Power” (Afg‘oniston) hamda “Aviation Renewables Corporation” (Kanada) kompaniyalari mutaxassislari bilan hamkorlikda aerodrom parvozlari ta‘minlashda yoritish texnikasi bo‘yicha afg‘on mutaxassislari uchun o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

O‘quv natijalariga ko‘ra, Afg‘oniston Islom Respublikasining bir necha aerodromlarida Kanadada ishlab chiqarilgan Hybrid Powered PAPI Lights uskunalari o‘rnatiladi. Mutaxassislarga uchish-qo‘nish yo‘lagini yig‘ish, ishga tushirish, ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatishning barcha zarur elementlari namoyish etildi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati.